Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimida STEAM ta'limi konsepsiyasi keng ommalashib bermoqda. Mazkur yondashuv fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani integratsiyalashgan holda o'qitishni nazarda tutadi. STEAM ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash, muhandislik tafakkurini rivojlantirish va innovatsion faoliyatga tayyorlashdan iborat. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda FabLab va MakerSpace muhitlari muhim pedagogik vosita sifatida e'tirof etilmoqda.

FabLab atamasi "Fabrication Laboratory" tushunchasidan kelib chiqqan bo'lib, ilk bor Neil Gershenfeld tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. FabLablar raqamli ishlab chiqarish texnologiyalariga asoslangan ochiq innovatsion laboratoriyalar bo'lib, ularda foydalanuvchilar 3D printerlar, lazerli kesish qurilmalari, CNC dastgohlari, robototexnika vositalari va elektron qurilmalar yordamida turli loyihalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. MakerSpace esa ijodiy faoliyatni tashkil etishga mo'ljallangan ta'lim muhiti bo'lib, unda ta'lim oluvchilar mustaqil izlanish, tajriba o'tkazish va amaliy loyihalar yaratish orqali bilimlarni egallaydilar. So'nggi yillarda FabLab va MakerSpace texnologiyalaridan foydalanish nafaqat texnik yo'nalishdagi mutaxassislarni tayyorlashda, balki pedagogik ta'lim tizimida ham keng qo'llanilmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Texnik ijodkorlikni shakllantirish muammosi pedagogika, psixologiya, texnologik ta'lim va kasbiy tayyorlik sohalarida uzoq yillardan buyon o'rganib kelinayotgan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimida texnik ijodkorlik shaxsning yangi texnik g'oyalarni ilgari surish, mavjud texnologiyalarni takomillashtirish, muammolarga nostandart yechim topish hamda innovatsion faoliyat olib borish qobiliyatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi murakkab pedagogik hodisa sifatida talqin qilinadi. Mazkur tushuncha bugungi kunda, ayniqsa, pedagogik ta'lim tizimi uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki kelajakda boshlang'ich sinf o'quvchilarining texnik tafakkurini rivojlantiruvchi pedagogning o'zi ham yetarli darajada texnik ijodkorlik kompetensiyalariga ega bo'lishi zarur.

E. Torrance tomonidan ishlab chiqilgan kreativlik konsepsiyasi ham texnik ijodkorlikni o'rganishda muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Olim ijodiy faoliyatni muammolarni sezish, farazlarni ilgari surish, ularni tekshirish va yangi natijalarga erishish jarayoni sifatida talqin qilgan. Bugungi kunda FabLab va MakerSpace muhitlarida tashkil etilayotgan loyiha faoliyati aynan Torrance ta'kidlagan bosqichlarga mos ravishda amalga oshirilmoqda. Talabalar muammoni aniqlaydilar, loyihani ishlab chiqadilar, model yaratadilar va natijalarni sinovdan o'tkazadilar.

Texnik ijodkorlikni shakllantirishda konstruksionizm nazariyasi alohida o'rin tutadi. Ushbu nazariya asoschisi Seymour Papert hisoblanadi. Papert Piagetning konstruktivistik g'oyalarni rivojlantirib, bilimlar inson tomonidan faol yaratilishini va amaliy faoliyat orqali chuqur o'zlashtirilishini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Olimning fikricha, o'quvchilar o'zlari yaratgan mahsulotlar, modellar yoki texnik qurilmalar ustida ishlash jarayonida bilimlarni samaraliroq egallaydilar. Mazkur g'oya keyinchalik LEGO Education, Maker Education va STEAM ta'limining metodologik asosi sifatida qabul qilindi.

R. Ishmuhamedov va boshqa mahalliy olimlar innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqanlar. Biroq mavjud tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida texnik ijodkorlikni shakllantirishda FabLab va MakerSpace texnologiyalaridan foydalanish metodikasi hali yetarli darajada o'rganilmagan.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlar tahlili texnik ijodkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning aksariyati umumiy o'rta ta'lim yoki texnik yo'nalishdagi mutaxassislarni tayyorlash bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida MakerSpace va FabLab muhitlarining imkoniyatlari, texnik ijodkorlikning tarkibiy komponentlari hamda uni shakllantirishning metodik mexanizmlari bo'yicha ilmiy ishlanmalar yetarli emas.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida texnik ijodkorlikni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda zamonaviy pedagogika, psixologiya, texnologik ta'lim va kompetensiyaviy yondashuvlarning metodologik tamoyillaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatli yondashuv, konstruksionizm nazariyasi hamda STEAM ta'limi konsepsiyasi tashkil etdi. Ushbu yondashuvlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida texnik ijodkorlikni shakllantirish jarayonini yaxlit pedagogik tizim sifatida o'rganish imkonini berdi.

Tadqiqotda texnik ijodkorlik bo'lajak o'qituvchining texnik muammolarni aniqlash, ularni tahlil qilish, innovatsion g'oyalar ishlab chiqish, texnologik loyihalarni yaratish va amaliy faoliyatda qo'llashga qaratilgan integrativ kasbiy sifati sifatida talqin qilindi. Mazkur sifat shaxsning bilim, ko'nikma, malaka, motivatsiya va refleksiv faoliyatining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida shakllanadi. Shu sababli texnik ijodkorlikning tuzilmasi motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyatli va refleksiv komponentlar asosida ishlab chiqildi.

Motivatsion komponent bo'lajak o'qituvchilarning texnik faoliyatga bo'lgan qiziqishi, innovatsion g'oyalarga ochiqligi, kasbiy rivojlanishga intilishi va texnologik yangiliklarni o'zlashtirishga tayyorligini ifodalaydi. Ushbu komponent texnik ijodkorlikning boshlang'ich va harakatlantiruvchi omili hisoblanadi. Tadqiqot davomida talabalar orasida texnologik faoliyatga bo'lgan motivatsiyani aniqlash maqsadida anketa so'rovlari va diagnostik testlardan foydalanildi.

Kognitiv komponent texnik ijodkorlik uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar tizimini o'z ichiga oladi. Unga texnologik ta'lim asoslari, robototexnika, 3D modellashtirish, loyiha faoliyati, konstruktorlik ishlari va raqamli ishlab chiqarish texnologiyalari bo'yicha bilimlar kiritildi. Mazkur komponentni aniqlashda test topshiriqlari, suhbatlar va yozma nazorat ishlari qo'llanildi.

Operatsion-faoliyatli komponent texnik loyihalarni ishlab chiqish, konstruktorlik faoliyatini amalga oshirish, texnologik vositalardan foydalanish va amaliy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini ifodalaydi. Ushbu komponentni baholashda talabalar tomonidan yaratilgan texnik loyihalar, 3D modellar, robototexnika ishlanmalari va MakerSpace muhitida bajarilgan amaliy topshiriqlar ekspertlar tomonidan tahlil qilindi.

Refleksiv komponent esa bo'lajak o'qituvchilarning o'z faoliyatini tahlil qilish, natijalarni baholash, kamchiliklarni aniqlash va kelgusidagi faoliyatni rejalashtirish qobiliyatini tavsiflaydi. Refleksiya texnik ijodkorlikni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Chunki innovatsion faoliyat doimo o'z ustida ishlash va takomillashishni talab qiladi.

Tadqiqot jarayonida FabLab va MakerSpace texnologiyalariga asoslangan maxsus metodik tizim ishlab chiqildi. Ushbu tizimning asosiy maqsadi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida texnik ijodkorlikni shakllantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratishdan iborat bo'ldi. Metodik tizim quyidagi bosqichlardan iborat etib belgilandi:

*Birinchi bosqich - motivatsion-tayyorgarlik bosqichi.* Mazkur bosqichda talabalarda texnik ijodkorlikka qiziqish uyg'otish, FabLab va MakerSpace faoliyati bilan tanishtirish hamda zamonaviy texnologiyalarning ta'limdagi ahamiyatini anglatishga alohida e'tibor qaratildi. Talabalar uchun seminarlar, treninglar, mahorat darslari va innovatsion loyihalar taqdimotlari tashkil etildi.

*Ikkinchi bosqich - nazariy tayyorgarlik bosqichi.* Bu bosqichda talabalar robototexnika, 3D modellashtirish, Arduino platformalari, STEAM ta'limi va loyiha faoliyatining nazariy asoslari bilan tanishtirildi. Mashg'ulotlar interaktiv metodlar asosida tashkil etildi.

*Uchinchi bosqich - amaliy-loyiha faoliyati bosqichi.* Mazkur bosqich metodikaning eng muhim qismi hisoblanadi. Talabalar kichik guruhlarda texnik loyihalar yaratdilar, 3D modellar tayyorladilar, robototexnika



qurilmalarini yig'dilar va ularni dasturlash bo'yicha amaliy ishlarni bajardilar. Bu jarayonda FabLab va MakerSpace texnologiyalarining barcha imkoniyatlaridan foydalanildi.

*To'rtinchi bosqich - reflektiv-tahliliy bosqichi.* Bu bosqichda talabalar o'z faoliyatini baholash, erishilgan natijalarni tahlil qilish va yangi g'oyalarni ishlab chiqish bilan shug'ullandilar. Har bir loyiha bo'yicha muhokamalar tashkil etildi va ekspert baholari olindi.

Tadqiqot davomida pedagogik tajriba-sinov ishlari ham amalga oshirildi. Tajribada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ishtirok etdilar. Ular nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Nazorat guruhida an'anaviy ta'lim metodlaridan foydalanilgan bo'lsa, tajriba guruhida FabLab va MakerSpace texnologiyalariga asoslangan metodika joriy etildi. Tajriba yakunida har ikki guruh natijalari qiyosiy tahlil qilindi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida FabLab va MakerSpace texnologiyalariga asoslangan metodik tizimning bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida texnik ijodkorlikni shakllantirishdagi samaradorligi o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy texnologik muhitda tashkil etilgan o'quv faoliyati talabalarning nafaqat texnologik bilimlarini, balki ularning kreativ fikrlashini, konstruktorlik qobiliyatini va innovatsion faoliyatga tayyorligini ham rivojlantiradi.

Pedagogik kuzatishlar davomida an'anaviy o'qitish metodlari asosida tahsil olayotgan talabalar ko'proq nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanib qolayotgani, texnologik muammolarni mustaqil hal qilishda qiyinchiliklarga duch kelayotgani aniqlandi. Aksincha, FabLab va MakerSpace texnologiyalaridan foydalanilgan mashg'ulotlarda talabalar faol ishtirokchi sifatida namoyon bo'lib, o'z g'oyalarini amaliy mahsulotlarga aylantirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa ularning texnik ijodkorlik faoliyatiga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirdi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodik model to'rtta o'zaro bog'liq komponent asosida amalga oshirildi.

*Birinci komponent motivatsion-maqsadli komponent* bo'lib, u talabalarni texnik faoliyatga jalb etish, innovatsion fikrlashga yo'naltirish va kasbiy rivojlanishga motivatsiya hosil qilishga xizmat qildi.

*Ikkinchi komponent mazmuniy-kompetensiyaviy komponent* bo'lib, unda texnologik ta'lim, robototexnika, 3D modellashtirish va loyiha faoliyatiga oid bilimlar tizimi shakllantirildi.

*Uchinchi komponent amaliy-faoliyatli komponent* bo'lib, unda talabalar bevosita loyihalash, modellashtirish va konstruktorlik ishlari bilan shug'ullandilar.

*To'rtinchi komponent esa reflektiv-baholash komponenti* bo'lib, o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillash-tirishga qaratildi.

FabLab muhitida talabalar tomonidan turli texnik loyihalar ishlab chiqildi. Jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan didaktik konstruktorlar, mexanik modellar, o'quv o'yinlari va STEAM loyihalari yaratildi. Talabalar loyihani yaratish jarayonida muammoni aniqlash, g'oya ishlab chiqish, texnik chizma tayyorlash, model yaratish va natijani sinovdan o'tkazish bosqichlarini izchil amalga oshirdilar. Bu esa ularda muhandislik tafakkurining shakllanishiga xizmat qildi.

3D modellashtirish faoliyati alohida samaradorlik ko'rsatdi. Talabalar Tinkercad va boshqa modellashtirish dasturlari yordamida turli o'quv vositalari va konstruktsiyalarni loyihalashtirdilar. Dastlab talabalar oddiy geometrik shakllarni yaratishdan boshladilar, keyinchalik esa murakkab texnik modellarni ishlab chiqishga o'tdilar. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, 3D modellashtirish jarayoni talabalarning fazoviy tasavvurini, analitik fikrlashini va kreativligini rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

MakerSpace muhitida amalga oshirilgan loyiha faoliyati ham texnik ijodkorlikni rivojlantirishning samarali vositasi bo'ldi. Talabalar kichik guruhlariga bo'lingan holda hamkorlikda ishladilar. Har bir guruh muayyan texnologik muammoni tanlab, unga innovatsion yechim ishlab chiqdi. Masalan, ayrim talabalar ekologik mavzudagi STEM loyihalarini ishlab chiqqan bo'lsa, boshqalari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun interaktiv o'yin vositalarini yaratdilar. Hamkorlikdagi faoliyat natijasida talabalarning kommunikativ kompetensiyalari, jamoada ishlash ko'nikmalari va liderlik sifatleri ham rivojlandi.

Robototexnika elementlarini qo'llash ham muhim natijalarni berdi. Arduino platformasi asosida yaratilgan sodda robot modellarini yig'ish va dasturlash jarayoni talabalarni algoritmik fikrlashga o'rgatdi. Ular sensorlar, mikroprotsesszorlar va dasturlash bloklari bilan ishlash orqali texnologik jarayonlarning mohiyatini chuqurroq anglay boshladilar. Ayniqsa, robototexnika mashg'ulotlari texnik tafakkurni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi kuzatildi.

Olingan natijalar xorijiy tadqiqotchilar tomonidan e'lon qilingan ilmiy xulosalar bilan ham mos keladi. Xususan, Papert, Blikstein, Martinez va Stagerlarning tadqiqotlarida Maker Education va konstruksionistik yondashuvning ta'lim samaradorligini oshirishi ta'kidlangan. Bizning tadqiqotimiz ham mazkur xulosalarni tasdiqladi va FabLab hamda MakerSpace texnologiyalarining bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashdagi yuqori pedagogik salohiyatini ko'rsatdi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida texnik ijodkorlikni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda zamonaviy pedagogika, psixologiya, texnologik ta'lim va kompetensiyaviy yondashuvlarning metodologik tamoyillaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatli yondashuv, konstruksionizm nazariyasi hamda STEAM ta'limi konsepsiyasi tashkil etdi. Ushbu yondashuvlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida texnik ijodkorlikni shakllantirish jarayonini yaxlit pedagogik tizim sifatida o'rganish imkonini berdi.

Tadqiqotda texnik ijodkorlik bo'lajak o'qituvchining texnik muammolarni aniqlash, ularni tahlil qilish, innovatsion g'oyalar ishlab chiqish, texnologik loyihalarni yaratish va amaliy faoliyatda qo'llashga qaratilgan integrativ kasbiy sifati sifatida talqin qilindi. Mazkur sifat shaxsning bilim, ko'nikma, malaka, motivatsiya va refleksiv faoliyatining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida shakllanadi. Shu sababli texnik ijodkorlikning tuzilmasi motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyatli va refleksiv komponentlar asosida ishlab chiqildi.

Motivatsion komponent bo'lajak o'qituvchilarning texnik faoliyatga bo'lgan qiziqishi, innovatsion g'oyalarga ochiqligi, kasbiy rivojlanishga intilishi va texnologik yangiliklarni o'zlashtirishga tayyorligini ifodalaydi. Ushbu komponent texnik ijodkorlikning boshlang'ich va harakatlantiruvchi omili hisoblanadi. Tadqiqot davomida talabalar orasida texnologik faoliyatga bo'lgan motivatsiyani aniqlash maqsadida anketa so'rovlari va diagnostik testlardan foydalanildi.

Kognitiv komponent texnik ijodkorlik uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar tizimini o'z ichiga oladi. Unga texnologik ta'lim asoslari, robototexnika, 3D modellashtirish, loyiha faoliyati, konstruktorlik ishlari va raqamli ishlab chiqarish texnologiyalari bo'yicha bilimlar kiritildi. Mazkur komponentni aniqlashda test topshiriqlari, suhbatlar va yozma nazorat ishlari qo'llanildi.

Operatsion-faoliyatli komponent texnik loyihalarni ishlab chiqish, konstruktorlik faoliyatini amalga oshirish, texnologik vositalardan foydalanish va amaliy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini ifodalaydi. Ushbu komponentni baholashda talabalar tomonidan yaratilgan texnik loyihalar, 3D modellar, robototexnika ishlanmalari va MakerSpace muhitida bajarilgan amaliy topshiriqlar ekspertlar tomonidan tahlil qilindi.

Refleksiv komponent esa bo'lajak o'qituvchilarning o'z faoliyatini tahlil qilish, natijalarni baholash, kamchiliklarni aniqlash va kelgusidagi faoliyatni rejalashtirish qobiliyatini tavsiflaydi. Refleksiya texnik ijodkorlikni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Chunki innovatsion faoliyat doimo o'z ustida ishlash va takomillashishni talab qiladi.

Tadqiqot jarayonida FabLab va MakerSpace texnologiyalariga asoslangan maxsus metodik tizim ishlab chiqildi. Ushbu tizimning asosiy maqsadi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida texnik ijodkorlikni shakllantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratishdan iborat bo'ldi. Metodik tizim quyidagi bosqichlardan iborat etib belgilandi:

*Birinchi bosqich - motivatsion-tayyorgarlik bosqichi.* Mazkur bosqichda talabalarda texnik ijodkorlikka qiziqish uyg'otish, FabLab va MakerSpace faoliyati bilan tanishtirish hamda zamonaviy texnologiyalarning ta'limdagi ahamiyatini anglatishga alohida e'tibor qaratildi. Talabalar uchun seminarlar, treninglar, mahorat darslari va innovatsion loyihalar taqdimotlari tashkil etildi.

*Ikkinchi bosqich - nazariy tayyorgarlik bosqichi.* Bu bosqichda talabalar robototexnika, 3D modellashtirish, Arduino platformalari, STEAM ta'limi va loyiha faoliyatining nazariy asoslari bilan tanishtirildi. Mashg'ulotlar interaktiv metodlar asosida tashkil etildi.

*Uchinchi bosqich - amaliy-loyiha faoliyati bosqichi.* Mazkur bosqich metodikaning eng muhim qismi hisoblanadi. Talabalar kichik guruhlarda texnik loyihalar yaratdilar, 3D modellar tayyorladilar, robototexnika qurilmalarini yig'dilar va ularni dasturlash bo'yicha amaliy ishlarni bajardilar. Bu jarayonda FabLab va MakerSpace texnologiyalarining barcha imkoniyatlaridan foydalanildi.

*To'rtinchi bosqich - refleksiv-tahliliy bosqichi.* Bu bosqichda talabalar o'z faoliyatini baholash, erishilgan natijalarni tahlil qilish va yangi g'oyalarni ishlab chiqish bilan shug'ullandilar. Har bir loyiha bo'yicha muhokamalar tashkil etildi va ekspert baholari olindi.



Tadqiqot davomida pedagogik tajriba-sinov ishlari ham amalga oshirildi. Tajribada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ishtirok etdilar. Ular nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Nazorat guruhida an'anaviy ta'lim metodlaridan foydalanilgan bo'lsa, tajriba guruhida FabLab va MakerSpace texnologiyalariga asoslangan metodika joriy etildi. Tajriba yakunida har ikki guruh natijalari qiyosiy tahlil qilindi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida FabLab va MakerSpace texnologiyalariga asoslangan metodik tizimning bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida texnik ijodkorlikni shakllantirishdagi samaradorligi o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy texnologik muhitda tashkil etilgan o'quv faoliyati talabalarning nafaqat texnologik bilimlarini, balki ularning kreativ fikrlashini, konstruktorlik qobiliyatini va innovatsion faoliyatga tayyorligini ham rivojlantiradi.

Pedagogik kuzatishlar davomida an'anaviy o'qitish metodlari asosida tahsil olayotgan talabalar ko'proq nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanib qolayotgani, texnologik muammolarni mustaqil hal qilishda qiyinchiliklarga duch kelayotgani aniqlandi. Aksincha, FabLab va MakerSpace texnologiyalaridan foydalanilgan mashg'ulotlarda talabalar faol ishtirokchi sifatida namoyon bo'lib, o'z g'oyalarini amaliy mahsulotlarga aylantirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa ularning texnik ijodkorlik faoliyatiga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirdi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodik model to'rtta o'zaro bog'liq komponent asosida amalga oshirildi.

*Birinci komponent motivatsion-maqсадli komponent* bo'lib, u talabalarni texnik faoliyatga jalb etish, innovatsion fikrlashga yo'naltirish va kasbiy rivojlanishga motivatsiya hosil qilishga xizmat qildi.

*Ikkinchi komponent mazmuniy-kompetensiyaviy komponent* bo'lib, unda texnologik ta'lim, robototexnika, 3D modellashtirish va loyiha faoliyatiga oid bilimlar tizimi shakllantirildi.

*Uchinchi komponent amaliy-faoliyatli komponent* bo'lib, unda talabalar bevosita loyihalash, modellashtirish va konstruktorlik ishlari bilan shug'ullandilar.

*To'rtinchi komponent esa reflektiv-baholash komponenti* bo'lib, o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillash-tirishga qaratildi.

FabLab muhitida talabalar tomonidan turli texnik loyihalar ishlab chiqildi. Jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan didaktik konstruktorlar, mexanik modellar, o'quv o'yinlari va STEAM loyihalari yaratildi. Talabalar loyihani yaratish jarayonida muammoni aniqlash, g'oya ishlab chiqish, texnik chizma tayyorlash, model yaratish va natijani sinovdan o'tkazish bosqichlarini izchil amalga oshirdilar. Bu esa ularda muhandislik tafakkurining shakllanishiga xizmat qildi.

3D modellashtirish faoliyati alohida samaradorlik ko'rsatdi. Talabalar Tinkercad va boshqa modellashtirish dasturlari yordamida turli o'quv vositalari va konstruktsiyalarni loyihalashtirdilar. Dastlab talabalar oddiy geometrik shakllarni yaratishdan boshladilar, keyinchalik esa murakkab texnik modellarni ishlab chiqishga o'tdilar. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, 3D modellashtirish jarayoni talabalarning fazoviy tasavvurini, analitik fikrlashini va kreativligini rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

MakerSpace muhitida amalga oshirilgan loyiha faoliyati ham texnik ijodkorlikni rivojlantirishning samarali vositasi bo'ldi. Talabalar kichik guruhlarga bo'lingan holda hamkorlikda ishladilar. Har bir guruh muayyan texnologik muammoni tanlab, unga innovatsion yechim ishlab chiqdi. Masalan, ayrim talabalar ekologik mavzudagi STEM loyihalarini ishlab chiqqan bo'lsa, boshqalari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun interaktiv o'yin vositalarini yaratdilar. Hamkorlikdagi faoliyat natijasida talabalarning kommunikativ kompetensiyalari, jamoada ishlash ko'nikmalari va liderlik sifatleri ham rivojlandi.

Robototexnika elementlarini qo'llash ham muhim natijalarni berdi. Arduino platformasi asosida yaratilgan sodd robot modellarini yig'ish va dasturlash jarayoni talabalarni algoritmik fikrlashga o'rgatdi. Ular sensorlar, mikroprotssessorlar va dasturlash bloklari bilan ishlash orqali texnologik jarayonlarning mohiyatini chuqurroq anglay boshladilar. Ayniqsa, robototexnika mashg'ulotlari texnik tafakkurni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi kuzatildi.

Olingan natijalar xorijiy tadqiqotchilar tomonidan e'lon qilingan ilmiy xulosalar bilan ham mos keladi. Xususan, Papert, Blikstein, Martinez va Stagerlarning tadqiqotlarida Maker Education va konstruksionistik yondashuvning ta'lim samaradorligini oshirishi ta'kidlangan. Bizning tadqiqotimiz ham mazkur xulosalarni tasdiqladi va FabLab hamda MakerSpace texnologiyalarining bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashdagi yuqori pedagogik salohiyatini ko'rsatdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Papert S. Mindstorms: Children, Computers and Powerful Ideas. - New York: Basic Books, 1980. - 252 p.
2. Gershenfeld N. Fab: The Coming Revolution on Your Desktop. - New York: Basic Books, 2005. - 288 p.
3. Blikstein P. Digital Fabrication and 'Making' in Education. - Stanford: Stanford University, 2013. - 45 p.
4. Martinez S., Stager G. Invent to Learn: Making, Tinkering and Engineering in the Classroom. - Torrance: Constructing Modern Knowledge Press, 2019. - 320 p.
5. Halverson E., Sheridan K. The Maker Movement in Education // Harvard Educational Review.- 2014. - Vol. 84, No. 4. - P. 495-504.
6. Kolodner J. Problem-Based Learning Meets Case-Based Reasoning // Learning Sciences. - 2006. - Vol. 15, No. 3. - P. 221-242.
7. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. - 159 p.
8. Piaget J. The Psychology of Intelligence. - London: Routledge, 2001. - 182 p.
9. Bers M. Coding as a Playground: Programming and Computational Thinking in the Early Childhood Classroom. - New York: Routledge, 2020. - 224 p.
10. Resnick M. Lifelong Kindergarten: Cultivating Creativity through Projects, Passion, Peers, and Play. - Cambridge, MA: MIT Press, 2017. - 224 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(5)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.